SIFATLI TA'LIM – YORQIN KELAJAK
ISSN: 3060-4761
TerDPI ILMIY XABARNOMASI / SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI / НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

EKOLOGIYA VA ATROF-MUHIT MUHOFAZASI

(O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-maydagi 184-son Qarori asosida kiritilgan)

UDK: 504.75.06
ORCID: 0009-0005-3565-1465

OMANOV RASHID SHERQOBILOVICH,
Termiz davlat pedagogika instituti
O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i, p.f.f.d. PhD

BOSHLANG'ICH SINFDA EKOLOGIK BILIMLARNI AMALIY FAOLIYAT ORQALI MUSTAHKAMLASH

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik bilimlarni amaliy mashg'ulotlar orqali mustahkamlashning metodik asoslari tahlil etiladi. Amaliy faoliyat turlari — kuzatish, tajriba, ekologik o'yinlar, loyihalar orqali o'quvchilarning ekologik ongini rivojlantirish, tabiatga nisbatan hurmat va mas'uliyat hissini shakllantirish yo'llari ochib beriladi. Shuningdek, o'qituvchining pedagogik mahorati va zamonaviy yondashuvlarning o'rni ham yoritilgan.

KALIT SO'ZLAR: *ekologik ta'lim, boshlang'ich sinf, amaliy faoliyat, ekologik tarbiya, ekologik ong, tabiatni kuzatish, o'quvchi faolligi, innovatsion metodlar.*

ЗАКРЕПЛЕНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ЗНАНИЙ В НАЧАЛЬНОМ КЛАССЕ ЧЕРЕЗ ПРАКТИЧЕСКИЕ ЗАНЯТИЯ

АННОТАЦИЯ: В статье рассматриваются методические основы закрепления экологических знаний у младших школьников через практическую деятельность. Раскрываются эффективные формы работы, такие как наблюдения, эксперименты, экологические игры и проекты, способствующие формированию экологического сознания, бережного отношения к природе и ответственности у детей. Также освещается роль педагогического мастерства учителя и современных подходов в экологическом воспитании.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: *экологическое образование, начальные классы, практическая деятельность, экологическое воспитание, экологическое сознание, наблюдение природы, активность учащихся, инновационные методы.*

CONSOLIDATING ENVIRONMENTAL KNOWLEDGE IN THE PRIMARY GRADE THROUGH PRACTICAL ACTIVITIES

ABSTRACT. This article explores the methodological foundations for reinforcing ecological knowledge among primary school students through practical activities. It highlights effective forms such as observation, experiments, ecological games, and project-based learning that contribute to the development of ecological awareness, a respectful attitude toward nature, and a sense of responsibility in children. The importance of the teacher's pedagogical skills and the use of modern innovative approaches is also discussed.

KEYWORDS: environmental education, primary school, practical activities, ecological upbringing, ecological awareness, nature observation, student engagement, innovative methods.

KIRISH. Atrof-muhit muammolarining jiddiylashuvi va ekologik xavfsizlikka bo'lgan e'tiborning oshishi zamonaviy ta'limning asosiy yo'nalishlaridan biriga aylangan. Yosh avlodni ekologik ong va madaniyat bilan ta'minlash, ularni tabiatni asrashga rag'batlantirish va barqaror rivojlanish tamoyillarini singdirishning eng samarali yo'li — boshlang'ich sinflardan boshlab ekologik bilimlarni shakllantirishdir [1].

Boshlang'ich sinf o'quvchilari tabiatga juda yaqin, ularning tabiatni o'rganishdagi qiziqishi va kuzatuvchanligi yuqori. Shu bois, ekologik bilimlarni faqat nazariy o'rgatish bilan cheklanib qolmasdan, ularni amaliy mashg'ulotlar orqali mustahkamlash zarur. Amaliy faoliyat orqali o'quvchilar ekologik jarayonlarni chuqurroq tushunib, tabiatga bo'lgan hurmat va mas'uliyatni shakllantiradilar.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Bugungi kunda ekologik muammolar butun dunyo miqyosida juda dolzarb masalaga aylangan. Shu bois, yosh avlodni tabiatga hurmat va mas'uliyat ruhida tarbiyalash, ularning ekologik bilimlarini mustahkamlash ta'limning eng asosiy vazifalaridan biriga aylandi. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik bilimlarni shakllantirish va ularni amaliy mashg'ulotlar orqali mustahkamlash juda muhim hisoblanadi. Chunki boshlang'ich yoshdagi bolalar tabiatga nisbatan juda sezgir va qiziqishlari yuqori bo'ladi, ular o'rgangan bilimlarni ko'proq amaliyotda qo'llashni afzal ko'radi. Nazariy bilimlarni faqat darslikdan o'qish orqali o'zlashtirish ko'p hollarda ularning ongiga chuqur singmaydi va tez unutiladi. Shu sababli ekologik bilimlarni amaliy mashg'ulotlar, ekskursiyalar, o'yinlar va loyihalar yordamida mustahkamlash ta'lim jarayonining ajralmas qismi bo'lishi kerak.

Ekologik tarbiya, ekologik ong va ekologik fikrlash rivojining ayrim pedagogik jihatlari respublikamiz olimlaridan E.Turdi-qulov, Sh.Avazov, X.Norbo'tayev, M.Nishonboyeva, A.Nig'matov, N.Ravshan-ova, A.Rafiqov, T.Akimova tomonidan o'rganilgan.

Biroq, ekologik fikrlashni shakllantirish bosqichlari, mazkur jarayonga ta'sir etuvchi omillar va uning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash, pedagogik faoliyat modeli hamda texnologiyasini takomillashtirish muammosi maxsus pedagogik tadqiqot predmeti sifatida o'rganilmagan. Shu maqsadda boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik fikrlashni shakllantirishning pedagogik tizimini takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish zarur.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Ekologik fikrlashni shakllantirish va rivojlantirish tarixini tadrijiy o'rganish uning uzoq yillardan buyon tadqiq qilib kelinayotganligini ko'rsatdi. Shaxsda ekologik ong va dunyoqarashni barqaror shakllantirishning nazariy-tarixiy asoslari qadimgi yozma manbaalar hamda Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy kabi Sharq mutafakkirlari va jadid ma'rifat-parvarlarining pedagogik qarashlarida o'z aksini topgan [3].

Ekologik ta'lim o'qitish va o'qish jarayonlarida mavjud ijtimoiy ekologik tajribaning avloddan-avlodga o'tkazilishidir. Ekologik ta'lim orqali shaxsda ekologik bilim, ko'nikma va malakalar hosil bo'ladi. Ekologik ta'limning maqsadi shunchaki ekologik bilimlarni shakllantirish emas, balki ekologik madaniyatni rivojlantirishdan iborat. Bu esa yangi ekologik ta'lim paradigmasini shakllantirish imkonini beradi. Yangi ekologik ta'lim paradigmasida ekologik madaniyatning o'ziga xos tizimni shakllantiruvchi funksiyasini belgilash mumkin — bu jamiyatda ekologik faoliyatning ma'naviy va moddiy asoslarini tiklash jarayoni va natijasi hamda inson bilan tabiat o'rtasidagi o'zaro aloqani optimallashtirishdir [5].

Ekologik bilimlar va amaliy faoliyat tushunchasi. Ekologik bilimlar — bu o'quvchilarga atrof-muhit, uning resurslari, tabiat jarayonlari, inson faoliyatining tabiatga ta'siri haqidagi ma'lumotlarni o'zlashtirishdir. Boshlang'ich sinfda bu bilimlar ko'pincha o'simliklar, hayvonlar, ob-havo, tuproq va suv kabi asosiy tabiat ob'ektlariga oid bo'ladi.

Amaliy faoliyat — bu o'quvchilarning nazariy bilimlarini real sharoitlarda qo'llash, kuzatish, tajriba o'tkazish va tabiatni asrashga qaratilgan amaliy ishlarni bajarishdir. Amaliy mashg'ulotlar bolalarda ekologik bilimlarni nafaqat tushunish, balki hayotga tatbiq etish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Pedagogik tadqiqotlar shuni ko'rsata-diki, bolalar ekologik bilimlarni eng yaxshi amaliy mashg'ulotlar, o'yinlar, ekskursiyalar va loyihalar orqali o'zlashtiradilar. Amaliy faoliyat ularda ekologik ongni rivojlantirish, tabiatga mehr-muhabbatni uyg'otish, mas'uliyatni his qilishga yordam beradi [3].

Bundan tashqari, boshlang'ich sinf o'quvchilari faollikka, kuzatuvchanlikka va jamoaviy ishlarga moyil bo'lib, bu xususiyatlar amaliy mashg'ulotlar samaradorligini oshiradi. Shu bois, o'quv-mashg'ulot tizimida amaliy faoliyatga alohida e'tibor qaratish lozim.

Dala va tabiatni kuzatish mashg'ulotlari. Dala mashg'ulotlari boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik bilimlarni mustahkamlashning eng samarali shaklidir. O'quvchilar tabiatga bevosita chiqib, o'simliklar, hayvonlar, ob-havo hodisalarini kuzatadilar. Bu jarayonda:

— O'qituvchi kuzatish tartibini tushuntiradi,

— Muayyan tabiat obyektlarini ko'rsatib o'tadi,

— O'quvchilar o'z kuzatuvlarini yozib yoki chizib boradilar,

— Ular orasida tabiatni asrash bo'yicha suhbatlar tashkil qilinadi.

Daraxtlarning o'sishi, barglarning rang o'zgarishi, qushlarning harakati kabi mavzular atrofida suhbatlar va kuzatish ishlari olib borildi. O'quvchilarning ekologik tafakkuri ijobiy o'zgarishlar kuzatildi.

Ekologik amaliy loyihalar. Loyihaviy faoliyat o'quvchilarni jamoaviy ishga jalb qilish, mas'uliyatni oshirish va o'z bilimlarini qo'llashga imkon yaratadi. Biz quyidagi loyihalarni tavsiya qilamiz:

— Chiqindilarni ajratib yig'ish loyihasi,

— Maktab hududida daraxt ekish,

— Suvni tejash va uni ifloslanishining oldini olish bo'yicha kampaniyalar.

Har bir loyiha bosqichma-bosqich amalga oshiriladi: reja tuzish, vazifalarni taqsimlash, ishni bajarish, natijalarni tahlil qilish va xulosa chiqarish.

O'yinlar boshlang'ich sinf o'quvchilarining diqqatini jamlash, bilimlarni mustahkamlash va ularda qiziqish uyg'otish uchun juda samarali usuldir. "Tabiat qahramonlari" roli o'yini, "Ekologik xazina" qidiruvi, "Qayta ishlash qanday yordam beradi?" viktorinasi o'yinlari o'quvchilarning ekologik tushunchalarini oshiribgina qolmay, ular orasida hamjihatlik va jamoaviy ish ko'nikmalarini shakllantiradi [4].

Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun oddiy va xavfsiz eksperimentlar o'tkazish muhimdir. Suvni tozalashning oddiy usullarini sinash, tuproq namligini o'lchash, o'simliklarning o'sishini turli sharoitlarda kuzatish. Bunday faoliyat bolalarga nazariy bilimlarni amaliy misollar orqali anglash imkonini beradi va qiziqishni oshiradi.

Amaliy faoliyat o'quvchilarga nafaqat ekologik tushunchalarni chuqurroq anglash imkonini beradi, balki tabiatni asrashga oid mas'uliyatni his qilishga yordam beradi. Dala va tabiatni kuzatish mashg'ulotlari bolalarga o'simliklar, hayvonlar, ob-havo va boshqa tabiiy hodisalarni bevosita ko'rish va ularni o'rganishga undaydi. Shu tarzda o'quvchilar nazariy bilimlarni real hayotiy misollar bilan bog'laydi, o'rganganlarini yanada mustahkamlaydi. Ekologik amaliy loyihalar esa jamoaviy ish ko'nikmalarini rivojlantiradi, o'quvchilarni tabiatni asrash yo'lida faol bo'lishga undaydi. Natijada, chiqindilarni saralash, daraxt ekish, maktab hududini tozalash kabi loyihalar o'quvchilarda mas'uliyat hissini oshiradi, ekologik kompetensiyalar va ularning ekologik madaniyatini rivojlantiradi.

Amaliy faoliyatni tashkil etishda e'tibor berilishi lozim bo'lgan jihatlar.

1. Dars rejasi va metodik vositalarni to'g'ri tanlash. Amaliy mashg'ulotlar uchun mavzuga mos reja tuzish zarur. Mashg'ulotlarda foydalaniladigan ko'rgazmali materiallar, audio-vizual vositalar, o'yinlar va eksperimentlar oldindan tayyorlanishi kerak.

2. O'quvchilarni faol ishtirok etishga jalb qilish. O'qituvchi har bir o'quvchining faol ishtirokini ta'minlashi, ularni savollar berishga, fikr bildirishga rag'batlantirishi lozim. Jamoaviy ishlarda ham har bir bola o'z vazifasini bajarganini his qilishi muhim.

3. Sinfdan tashqari faoliyatni rivojlantirish. Ekologik tadbirlar maktab ichida va tashqarisida (masalan, tabiat qo'ynida, bog'larda) o'tkazilishi o'quvchilarni tabiat bilan yaqindan tanishtiradi va ekologik madaniyatini oshiradi.

4. Baholash tizimini joriy etish. Amaliy faoliyat natijalarini baholash uchun aniq mezonlar belgilanishi kerak. Baholash nafaqat bilimni, balki amaliy ko'nikmalar, faollik va ijodkorlikni ham o'z ichiga olishi zarur. Rag'batlantirish tizimi (mukofotlar, diplomlar) o'quvchilarni faoliyatga yanada ko'proq jalb qiladi.

Ekologik o'yinlar va viktorinalar o'quvchilarning diqqatini jamlab, bilimlarni qiziqarli va interaktiv tarzda takrorlashga xizmat qiladi. Bu o'yinlar orqali o'quvchilar o'rgangan ma'lumotlarni mustahkamlabgina qolmay, jamoaviy hamkorlikda ishlash ko'nikmalarini ham rivojlantiradilar. Eksperimental faoliyat esa bolalarga suv, tuproq, o'simliklar kabi tabiiy elementlar bilan oddiy tajribalar o'tkazish imkonini beradi. Bu esa ularning nazariy bilimlarini yanada chuqurroq anglashga yordam beradi va tabiiy jarayonlarga qiziqishni oshiradi.

Amaliy faoliyatni tashkil etishda o'qituvchi katta rol o'ynaydi. U mashg'ulotlarni sinfdan tashqari maydonlarda o'tkazish, ko'rgazmali materiallardan foydalanish, interaktiv usullarni qo'llash orqali o'quvchilarning faolligini ta'minlashi kerak. O'quvchilarning har birining fikrini tinglash, ularni faol ishtirok etishga undash muhimdir. Shuningdek, o'quvchilarni rag'batlantirish tizimini yo'lga qo'yish, amaliy faoliyat natijalarini baholash ham samaradorlikni oshiradi.

O'qituvchilarning ekologik bilim va ko'nikmalarini doimiy ravishda oshirib borishi, zamonaviy metod va texnologiyalarni o'zlashtirishi, o'z ishida innovatsion yondashuvlarni qo'llashi esa ekologik ta'lim sifatini yanada yaxshilaydi. Ularning shaxsiy namunasi va ekologik mas'uliyatni namoyon etishi o'quvchilar uchun katta ta'sir ko'rsatadi.

Boshlang'ich sinfda ekologik bilimlarni amaliy mashg'ulotlar orqali mustahkamlash jarayonida o'qituvchining malakasi va metodik savodxonligi muhim ahamiyatga ega. O'qituvchilar ekologik ta'lim bo'yicha muntazam malaka oshirish kurslarida qatnashishi, yangi innovatsion metodikalarni o'zlashtirishi lozim. Shuningdek, o'qituvchi o'zining shaxsiy munosabatini, ekologik mas'uliyatni namoyish etishi o'quvchilarga namuna bo'ladi.

XULOSALAR. Boshlang'ich sinfda ekologik bilimlarni amaliy faoliyat orqali mustahkamlash – ta'lim sifatini

oshirish, o‘quvchilarda ekologik ong va mas’uliyatni shakllantirishda samarali metod hisoblanadi. Amaliy mashg‘ulotlar yordamida o‘quvchilar nafaqat nazariy bilimlarni egallaydilar, balki ularni kundalik hayotda qo‘llash ko‘nikmalarini egallaydilar. Shu bois, ekologik tarbiya jarayonida amaliy faoliyatga ustunlik berish, metodik jihatdan to‘g‘ri tashkil etish muhimdir.

Kelajak avlodni tabiatga hurmat va muhabbat bilan tarbiyalashning eng ishonchli yo‘li — ularni ekologik bilimlarni amaliy faoliyatda qo‘llashga o‘rgatishdir. Shunday qilib, boshlang‘ich sinfda ekologik bilimlarni amaliy faoliyat orqali mustahkamlash bolalarda tabiatga mehr-muhabbat va mas’uliyatni shakllantirishda eng samarali yo‘l hisoblanadi. Bu esa ularning kelajakda atrof-muhitni asrashda faol va bilimli fuqarolar bo‘lib voyaga yetishlariga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.Abdullayeva, N. Boshlang‘ich sinfda ekologik tarbiya metodikasi. Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti. 2020-y.

2.Xolmirzayev, S. Ekologik bilimlarni boshlang‘ich ta’limda shakllantirish muammolari. Pedagogika va Psixologiya, 3(15), 45–52. 2019-y.

3.Karimova, M. Ta’limda ekologik ongni rivojlantirish. Toshkent: Fan va Texnologiya. 2021-y.

4.Omanov R. Kichik maktab yoshidagi bolalarda ekologik tafakkurni shakllantirish // o‘quv qo‘llanma. – Termiz, 2024. – 81-bet.

5.Omanov R. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tizimli ekologik fikrlash elementlarini shakllantirish modeli va texnologiyalari // Texnologiya fanlarini o‘qitishning dolzarb muammolari mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. – Termiz, 2024. – B. 414–418.

6.Omanov R. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida modellashtirish vositasida tizimli ekologik tafakkur elementlarini shakllantirish // Boshlang‘ich ta’lim: samarali ta’lim amaliyoti, muammolari, istiqbollari mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. – Termiz, 2024. – B. 99–103.

7.Оманов Р. Бошланғич таълим ўқувчиларида атроф-муҳитга маъсулиятли муносабатни шаклантириш // “Ta’lim tizimida zamonaviy axborot texnologiyalari resurslaridan foydalanish istiqbollari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani to‘plami materiallari. – Тошкент, 2021. – Б. 315–318.